

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

AGROTEKNOLOGIYA FAKULTETI

«Agrotexnologiya, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va
avtomatlashtirish» kafedrası

**Agrotexnologiya Fakulteti, 60820100-O‘rmonchilik ta‘lim
yo‘nalishi**

**2-bosqich 207-guruh talabalari uchun
“Madaniy o‘rmonlar” fanidan**

**“Ko‘chatlarni texnik qabul qilish, inventarizatsiya, qazib
olish, saqlash va tashish” mavzusidagi ma‘ruza mashg‘ulot
darsi bo‘yicha bo‘yicha**

OCHIQ DARS ISHLANMASI

SAMARQAND - 2024

Tuzuvchi: B.Q. Shoniyozov

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Agrokimyo, tuproqshunoslik va o’simliklar himoyasi” kafedrası katta o’qituvchisi

Taqrizchilar:

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
“Agrobiotexnologiya” katta o’qituvchisi
q.x.f.f.d. (PhD)

I.M.Lukova

Agrotexnologiya, ishlab chiqarishni
maxanzatsiyalashtirish va avtomatlashtirish
kafedrası assistenti, q.x.f.f.d.(PhD)

H.Hamrokulova

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichi	Faoliyat mazmuni (Pedagogik texnologiya – aqliy hujum, klaster, bumerang)	
	O'qituvchi	Talabalar
I. Mavzuga kirish bosqichi (10 daqiqa)	<p>1.1. Mavzu nomi e'lon qilinadi.</p> <p>1.2. Mavzuni o'zlashtirish uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar beriladi.</p> <p>1.3. Mavzuda ko'p ishlatiladigan atama va iboralar bilan tanishtiriladi.</p> <p>1.4. Mavzu davomida o'rganiladigan muammolarga to'xtalanadi.</p> <p>1.5. Topshiriqlarga javob berish yo'llari tushuntiriladi.</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Yozib oladilar</p> <p>Mavzu tekstini ARM dan oladi</p> <p>Ma'ruza asosida o'z fikrini bildiradilar</p>
II. Asosiy bosqich (65 daqiqa)	<p>2.1. Ma'ruzadan oldin ma'ruza matni tarqatiladi. Talabalar ma'ruzadan oldin matn bilan tanishib chiqadi.</p> <p>2.2. Asosiy qo'yilgan savollar keltirilgan ko'rgazmali qurollar, slayd va videofilmlar asosida tushuntiriladi. Har bir qo'yilgan savol bo'yicha xulosalar qilinadi va auditoriyaga "Бумеранг" sifatiga savol bilan murojat qilinadi.</p> <p>2.3. Duskada asosiy faktlar, formulalar, jarayonlar yoziladi. Jarayonlarning natijalariga e'tibor qaratiladi.</p> <p>2.4. Har bir masala bo'yicha hayotdan, ishlab chiqarishdan, tajribalardan misollar keltiriladi.</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Yozib oladilar</p> <p>Muhim joylarni belgilab oladilar</p> <p>Tushunmagan joylardan savol berishga tayyorlanadilar</p>
III. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	<p>3.1. Ma'ruzada o'rganiladigan masalalar, ko'tarilgan muammolar va auditoriyaga tashlangan savollar bo'yicha asosiy javob va xulosalar qilinadi. Ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega bo'lgan muammolar yechimiga to'xtaladi.</p> <p>3.2. Talabalarga o'tilgan ma'ruzada o'rganilgan masalalar bo'yicha savol tashlanadi.</p> <p>3.3. Talabalar tushunmagan va qiziqqan masalalar bo'yicha savol beradi va javob oladi.</p>	<p>Savollar beradilar</p> <p>Vazifani yozib oladilar</p>

Mavzu: Ko‘chatlarni texnik qabul qilish, inventarizatsiya , qazib olish, saqlash va tashish

Reja:

1. Ko‘chatlarning texnik ko‘rsatkichlari
2. Ko‘chatlarni inventarizatsiya qilish tartibi
3. Ko‘chatlarni qazib olish tartibi
4. Ko‘chatlarni saqlash usullari
5. Ko‘chatlarni transportirovka qilish

Ko‘chatlarni texnik qabul qilish va inventarizatsiyalash o‘rmon xo‘jaligi korxonani direktori tasdiqlagan maxsus komissiya tomonidan o‘tkaziladi, ko‘chatzor alohida balansga ega bo‘lgan holatda komissiya ko‘chatzor direktorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Komissiya tarkibiga o‘rmon xo‘jalik vakili, o‘rmonchi, texnik, kasaba uyushmasi tashkiloti vakili va inventarizatsiyalanadigan uchastka brigadiri kiritiladi.

Ko‘chatzorda nihollarni texnik qabul qilish nihollar unib chiqqandan keyin, lekin ekilgandan bir oy muddatdan kech bo‘lmagan vaqtda o‘tkaziladi: yirik ko‘chat, etishtirish bo‘limidagi ishlarni texnik qabul qilish ish tugallangandan keyin 10 kun ichida o‘tkaziladi. ko‘chatzorning urug‘ sepish bo‘limi va yirik ko‘chat etishtirish bo‘limida texnik qabul qilishda ekish sxemasi, ko‘chatlarning joylashish sxemasi, ekish normasi va chuqurligiga e‘tibor qaratiladi, tuproqqa ishlov berish sifati aniqlanadi, nihol va ko‘chatlarning holati o‘rganiladi, qoniqarsiz holati uchraganda uning sabablari ko‘rsatiladi, kamchiliklarni tuzatish tadbirlari aniqlanadi.

Tuproqdagi sog‘lom urug‘larning miqdori unib chiqish miqdoriga nisbatan 25% dan kam bo‘lganda, yoki 10% dan kam bo‘lgan unib chiqqan nihollar va tuproqda 20% dan kam sog‘lom urug‘lar miqdori bo‘lgan nihollar qurigan nihollarga kiradi. tuproqdagi sog‘lom urug‘lar miqdori 25% dan ko‘p bo‘lganda ekilgan urug‘lar unib chiqmagan holatida deb hisoblanadi.

Qurigan nihollari va unib chiqmagan urug‘larni qabul qilish diagonal bo‘yicha joylashgan chiziqli maydondagi 1 m kesimda ekilgan urug‘larni qazib olib ularni bo‘ylama kesish usuli bilan holati aniqlanadi va unib chiqqan nihollar hisoblanadi. kesimlar soni 1 ga maydonda 20 dan kam bo‘lmasligi kerak. har bir uchastkadagi daraxt turining urug‘lar bo‘yicha esa 200 donadan kam bo‘lmasligi zarur.

Har yili o‘simlikning vegetatsiya davri tugagandan keyin urug‘ko‘chat va ko‘chatlarni kuzda qazib olishdan oldin, ya‘ni o‘rmon o‘sish geografik sharoitga bog‘liq holda 1 sentyabrdan 1 noyabryargacha ko‘chatlarni inventarizatsiyadan o‘tkaziladi. ko‘chatzorda o‘stirilgan urug‘ko‘chat va ko‘chatlarning miqdori va sifati, ular ekilgan maydon aniqlanadi.

Ko‘chatzordagi urug‘ko‘chatlarni diagonal yo‘l bilan inventarizatsiyadan o‘tkaziladi. urug‘ko‘chatlar chiziq bo‘ylab tekis joylashganda har bir daraxt turi va tup bo‘yicha ularning 2% hisoblanadi, tekis bo‘lmagan holda 4%.

Bazisli ko'chatzorlarda mehnat xarajatini va vaqtini tejash maqsadida inventarizatsiya ikki bosqichdan iborat usulda o'tkaziladi. birinchi bosqichda sinov inventarizatsiya o'tkaziladi. bu usulda hisoblash kesimining urug'ini 0,5 m minimal miqdori aniqlanadi. olingan ma'lumotlar asosiy inventarizatsiyalar o'tkazishda foydalaniladi. urug' ekish bo'limi bo'yicha bir tekisda 0,5 m uzunlikdagi hisoblash kesimdan 20 tasi aniqlanadi. hisoblash kesimlarida urug'ko'chatlar etalon bo'yicha hisobga olinadi.

20 ta hisoblash kesimi bo'yicha olingan ma'lumotlar variatsion statistika usuli bilan ishlanadi, o'zgaruvchanlik koeffitsienti aniqlanadi. bu ko'rsatkich 22% dan kam bo'lsa asosiy inventarizatsiya o'tkazilmaydi. aks holda olingan o'zgaruvchanlik koeffitsienti bo'yicha inventarizatsiyadagi jadvalga asosan ishonchli ma'lumot olish uchun zarur bo'lgan hisoblash kesimlar miqdori aniqlanadi va asosiy inventarizatsiya o'tkaziladi. inventarizatsiya natijasi bo'yicha urug'ko'chatlar chiqishining miqdori, umumiy urug'ko'chatlar miqdori, ularning holati aniqlanadi.

Yirik ko'chat etishtirish bo'liming maydoni 3 ga gacha bo'lgan holatda inventarizatsiya yalpisiga hisoblash usuli bo'yicha o'tkaziladi, maydoni 3 ga dan ko'p bo'lgan holda tanlov usulida inventarizatsiya o'tkaziladi.

Terak va tol ona plantatsiyalarida har yili novdalarining miqdori aniqlanadi. novdalarning miqdori maydoni 3 ga gacha bo'lgan plantatsiyalarida har bir beshinchi qatordagi tublar hisoblanadi, 3 ga dan ko'p bo'lgan holda har-bir o'ninchi qator hisoblanadi. novdalarning kattaliklari o'lchanib kesish uchun yaroqlilarining miqdori aniqlanadi.

Etishtirilgan ko'chatlarni qazib olish va saqlash davrida urug'ko'chatlarni, ko'chatlarni va qalamchalarni konservatsiyasini ta'minlovchi sharoit yaratilishi zarur. ularning o'sishini sun'iy ravishda o'tkazishga qadar to'xtatish oziq moddalar sarfini kamaytiradi. tutib qolish foizini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Ko'chatni o'simlik turg'unlik davrida, kuzda yoki bahorda qazib oladi. kuzda vegetatsiya davri ohirida, bahorda kurtak chiqarmasdan ko'chatlar qazib olinadi. qazib olish muddati daraxtning biologik xususiyatiga, ishchi kuchiga, mexanizmlarga, saqlash sharoitiga va boshqalarga bog'liq.

Qazib olishda urug'ko'chat ildizi 25-30 sm dan kam bo'lmasligi. ko'chatlar ildizi kamida 30-40 sm bo'lishi lozim.

Qazib olish maqsadida nvs-1,2 osma skoba, vm01,25 qazib olish mashinasi, vpn-2 pluglaridan foydalaniladi. qazib olingan ko'chatlar saralanib saqlash uchun vaqtinchali ko'mib qo'yiladi. vaqtinchalik ko'mib qo'yish uchun 30-40 sm chuqurlikda ariqchalar ochiladi va uning yon devorlaridan birontasi 45° ostida tayyorlanadi. unga ko'chatning ildiz bo'yni 5-10 sm (yirik ko'chatlarni 20-30 sm) ko'milib turishini hisobga olgan holda ko'chatlar taxlanadi.

Ko'chatlar tuproqdan bir necha qatlam hosil qilib ko'miladi, har bir qatlamdan keyin zichlanadi va suv quyiladi.

Ariqlar asosiy shamol yo'nalishini perpendikulyar holatda tayyorlanadi, ko'chatlar shamol yo'nalishi bo'ylab joylashtiriladi.

Ildizi yopiq usulda o‘stirilgan ko‘chatlar ekish uchun talabga qarab joylarga keltiradi va u erda saqlash 2 haftadan oshmasligi kerak. ularni saqlashda substratining qurib qolmasligi, to‘g‘ridan to‘g‘ri quyosh nuri ta‘sir etmasligi zarur.

Qo‘chatlarni tashishda ildiz sistemasining qurib qolishidan saqlanadi. ularni avtotransportda tashish uchun avtomashina kuzovga somon yoki poxol bilan 5-8 sm qalinlikda to‘shaladi. ko‘chatlar gorizontal yoki yonboshlab taxlanadi va usti yana poxol bilan yopiladi, mashina kuzovi brezent bilan berkitiladi.

Ko‘chatlar 6 m dan ortiq yo‘l bosib o‘tadigan holatda, ular tyuklarga o‘raladi. tyuklar og‘irligi 30 kg dan oshmasligi kerak.

Yopiq ildizli ko‘chatlar o‘zlarining yahiklarda, poddonlarida, rulonlarida tashiladi.

Transportda tashiladigan ko‘chatlarga pasport beriladi. pasportda ko‘chatzor manzili, qazib olingan, taxlangan, jo‘natilgan vaqti, nomi, yoshi va ko‘chat navi, karantin inspeksiya xujjati nomeri va sonasi, urug‘ining kelib chiqish joyi ko‘rsatiladi.

Madaniy o‘rmon ishi nazariyasi va amaliyoti rivojlanishiga o‘zbekiston o‘rmonchilari katta hissa qo‘shdilar. ular madaniy o‘rmonlar barpo etish, yaratish bo‘yicha turli - tuman, qulay usul va uslublar yaratdilar. madaniy o‘rmonlar yaratishda keng mexanizatsiyani qo‘llagan holda himoya vositalaridan keng qimmatbaho va tez o‘sovchi turlar asosida daraxt zahirasini boyitishi va shu bilan barobariga atrof muhitga ijobiy ta‘sirini oshirishi kerak. o‘zbekistonda o‘rmon, daraxtzorlarning meliorativ ahamiyati katta.

Tuproq eroziyasi va toshqin, sellarga qarshi kurashda tabiiy va sun‘iy o‘rmonlar samarasi katta. ular qudratli suv himoyalovchi, suvni tartibga soluvchi, tuproq himoyalovchi, iqlimni tartibga soluvchm vazifalarni bajaradi. ular vayron keltiruvchi toshqinlarni so‘ndiradi. cho‘l-qum daraxtzorlari qumni mustahkamlab, ularni vohaga tushishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Sug‘oriladigan erlardagi daraxtzorlar q/x ekinlarini zararli shamoldan himoya qiladi. daraxtzorlar yuqori hosil olishni ta‘minlaydi. avvallari daraxtzorlardan aqlsiz betartib foydalanish daraxtzor maydonini kamayib ketishiga olib kelgan.

Madaniy o‘rmonlar, asosan tez o‘sovchi daraxt turlari (terak) o‘zbekiston xalq xo‘jaligining yog‘ochga bo‘lgan talabini qondiradi. hamma holatda o‘rmon tiklash tez usuvchi, qimmatbaho, yuqori sifatli daraxt turlaridan tejamkor o‘rmon barpo etishni ta‘minlaydi.

Madaniy o‘rmonlar tez o‘sishi, samarasi va boshqalar bo‘yicha tabiiy o‘rmonlardan ustun turadi.

Avval o‘rmon bo‘lgan joyda sun‘iy o‘rmon barpo etish o‘rmonni qayta tiklash, o‘rmon bo‘lmagan joyda barpo etish o‘rmon yaratish deyiladi. butun o‘rmon tiklanadigan maydon madaniy o‘rmonlar fondi deyiladi. bunga davlat

o'rmon fondi xududidagi quyidagi er kategoriyalari kiradi: joriy daraxt kesilayotgan maydonlar, o'tgan yili kesilgan ammo qimmatbaho turlar tabiiy tiklanishi sodir bo'lmagan maydonlar, o'rmondagi ochiq erlar, obod etilmagan erlar, yongan o'rmon maydonlari, quruq botqoqliklar, siyrak, 0,1-0,2 to'liqlikdagi o'rmonlar, qumliklar, jarliklar va boshqa o'rmon bo'lmagan maydonlar (yangi tabiiy iqlim sharoitida o'rmon barpo etish mumkin bo'lgan maydonlar), madaniy o'rmonlar nobud bo'lgan maydonlar. madaniy o'rmonlar barpo etiladigan maydon vaqtida tayyorlangan bo'lishi kerak. buning uchun er maydoni tozalanadi. bunda butun maydon yoki mashina tuproqqa ishlov beruvchi qismidagi kesilgan daraxt qoldiqlari va to'nkalarni olib tashlanadi. daraxt kesilgan va yonib ketgan maydonlar to'liq tozalanadi.

Madaniy o'rmonlarni xududlashtirish. xududlashtirish - bu mamlakat yoki uning biror hududini bir xil tabiiy sharoit bo'lgan xududlarga ajratishdir. shunday qilib xudud tabiiy sharoiti, tuproq-gidrologik va iqtisodiy sharoiti bir xil bo'lgan joydir.

Sun'iy o'rmon barpo etishning asosiy xususiyatlaridan biri ular tarkibini tanlashdir. bir turning o'zi eman daraxti, dubil ekstrakti, yog'och, ko'mir olish uchun, terak daraxti - yog'och olish, qog'oz - sellyuloza sanoati uchun, tol daraxti - mebel sanoatida foydalanish, savat tuzish uchun o'stiriladi. yana bir xil tur juda yaxshi o'sishi mumkin bo'lgan o'rmonlar ekstremal sharoitda o'sishi mumkin bo'lgan daraxtlardan barpo etishda (qumda- saksovul, quruq tuproqda pista, bodom va boshqalar). boshqa holatlarda aralash turlar murakkab sxemasi keng foydalaniladi.

Bular shuningdek tabiiy sharoitda keng qo'llanilib, yaxshi samara beradi.

Tuproqqa ildizi chuqur kiradigan va keng tarqaladigan (tuproq yuza qismida) turlar unumdor va nam tuproqlarda ekiladi.

Aralash daraxtzorlar vegetatsiya davrida maqbul oziqlanish tartibini vujudga keltiradi. masalan, eman-shumtolning aralash daraxtzorida vegetatsiya davrining 2-yarmida shumtol ko'p azotni o'ziga singdiradi.

Bitta daraxt turidan hosil bo'lgan daraxtzor oziqlanish sharoitini yomonlashtirishi mumkin, masalan, faqat qora qarag'ay yoki qarag'aydan iborat daraxtzorda kupol gumus qatlami hosil bo'lib, tuproq ustini qoplab qoladi. bu esa yomg'ir chuvalchangining, tarqalishiga noqulay sharoitdir. yomg'ir chuvalchangi kam bo'lsa, tuproq ustki qatlami qotib qoladi. bu esa daraxt ildiz sistemasi yaxshi rivojlanishga to'siq bo'ladi.

Shumtol tuproq unumdorligini oshiruvchi tur hisoblanadi. daraxtining ostida o't qoplami yaxshi rivojlangani uchun barg qoplami hosil bo'lmaydi. eman - shumtol daraxtzorida shumtol 30% dan ko'p bo'lmaganda daraxt osti butunlay barg tushamasi bilan qoplanadi.. bunda o't qatlami kuchsiz rivojlanadi.

Aralash daraxtzor shamoldan kam zararlanadi, shuningdek qor qoplami, yong'in, zararli hashorat va kasalliklardan ham. aralash daraxtzorda ildiz zararkundasi bilan oddiy qarag'ay kam zararlanadi. umuman yaproq barglilar mexanik himoya bilan birga, tanasida oquvchi sharoit-suyuqlik, kasalliklarga fungitsid kabi ta'sir etadi.

Park va hiyobonlarda ham daraxt turlari fenologiyasi o'rganilib tur aralash sxemada o'tqaziladi.

Turni tanlashda atrof - muhit va daraxt xususiyati e'tiborga olinadi. aralash daraxtzor barpo qilishda daraxt tarkibi butunlay aniq tanlanish kerak.: oq qayin, oq akatsiya, gledichiya, barxat va boshqalar, oddiy shumtol uchun yomon natija beradi, zarang esa eman uchun.

Yuqorida turlar o'zidan daraxtzor barpo etilsa, ular ostida to'shama xosil bo'lmaydi, namsevar o't o'simliklar yaxshi rivojlanadi va nam tanqisligi vujudga keladi.

Aralash daraxtzorda turlarning o'zaro ta'siri.o'zaro ta'sir aralash daraxtzorda sharoit tur tarkibi va yoshiga bog'liq.

Aralash daraxtzorda daraxtlar yorug'lik, namlik, tuproqdagi oziq moddalar uchun kurashadilar. shu sababli daraxtzor barpo etishda shunday turlar tanlash kerakki, ular bir-biriga ijobiy ta'sir etadi.

O'rmondagi barcha o'zaro ta'sir shakllari 5 guruhga bo'linadi: bioximik, biofizik, biotrofik, fiziologik, mexanik.

Bioximik - o'zaro ta'sir daraxtsimon o'simliklar er ustki va ildiz sistemasining turli moddalar ajratishi oqibatidir. biofizik o'zaro ta'sir - tashqi sharoit ta'sirida o'simliklarning o'zgarishi. yon tomondan to'sib qolishi natijasida yorug'lik va issiqlikning kam tushishi.

Biotrof ta'sir - tuproqdagi moddalarni olish va unga turli moddalar qaytarishdagi ta'sir. mexanik - shox- shabbasi bilan yonidagi daraxtlarga ta'sir etish. bir xil daraxt turlarida ba'zi tuplarida organlari o'sib ketishi kuzatiladi (ildizi.shoxlari.tanasi).bunda oziq modda va namlik boshqasiga nisbatan ko'p talab etiladi.bu fiologik ta'sirga kiradi.

Bir xil daraxt turlarida 1 va 2 yarus o'rtasidagi ta'sir ham bo'ladi. har xil buta turlari daraxt holati bo'yicha turlariga turlicha ta'sir etadi.

Masalan, oddiy shumtol va eman daraxtzordagi miqdoriga qarab o'zaro ta'sir etadi. eman vegetatsiya davri 1-yarmida, shumtol 2-yarmida azot, fsoforni ko'p o'zlashtirilgani uchun oziqqa talab bo'yicha konkurent bo'lmaydi. agar aralash daraxtzorda shumtol miqdori 30% dan ko'p bo'lmaydi, daraxtzor sekin o'sadi, sababi, shumtol yoyilib o'sadi va butun atrofi ko'plab erga yorug' tushishiga yo'l qo'ymadi. buning oqibatida daraxt ostidagi o'simlik va tuproq strukturasi buziladi.

Shumtol transpiratsiya qobiliyati ham juda kuchli. umuman emanga nisbatan tez o'sadi, bir xil yoshda bo'yi ancha baland bo'ladi va emanni siqib qo'yadi.

Aralash daraxtzorda shumtol 30% dan kam bo'lsa, eman xam yaxshi rivojlanadi.

Haydalgan erlarda 20-yoshgacha shumtol ta'siri yuqori bo'lib, keyingi yillarda eman ustunligi ortadi. uzoq yillar qishloq xo'jaligida foydalanib so'ngra undan chiqarilgan erlarda oziq modda ko'pligi xisobiga dastlabki 20 yil shumtol yaxshi rivojlanadi .ammo keyingi yillarda shumtol o'suvchanligi sekinlashadi.shunday joyda o'sgan 70 yoshli shumtol daraxti tanasi tabiiy xolatdagisiga nisbatan 30-40 % kichik bo'ladi. dub esa kam farqlanadi.

Nam va yangi, eman zaran daraxtzorida boshlang'ich 10 yilida zarang emanga nisbatan baland bo'ladi. keyingi yillarda ikkalasi tenglashib boradi va

etilgan yoshida zarang 2-yarusga tushib qoladi. dasht zonasida ham buni to'liq kuzatish mumkin.

Daraxtzorlarning vegetativ ko'paytirib o'stirilgan va urug'idan o'stirilgan aralashmasining o'zaro ta'sirini ham kuzatish mumkin. vegetativ yo'l bilan olingan ko'chat birinchi yili urug'idan o'stirilganiga nisbatan sekin o'sadi. parvarish o'tkazilmaganda, urug'idan o'stirilgan ko'chat nobud bo'lishi mumkin. aslida urug'idan o'stirilgan ko'chat, vegetativ ko'chat bilan bir yarusga chiqqanda yoki o'zi 1 yarusga chiqqandan keyin nisbatan chidamli bo'ladi.

Madaniy o'rmonlar qalinligi ekin qalinligi - bu 1 ga maydondagi daraxt sonidir. bu xil yo'l bilan daraxtzor qalinligini o'lchash, uning manosini to'liq ochib berolmaydi. masalan, 1 xil sondagi daraxt turlaridan iborat, ammo har xil sxemada joylashtirilgan daraxtzor maydonda o'zaro ta'sir turlicha bo'ladi. agar aralash yoki bir xil turdan iborat daraxtzorda turning biologik va qimmatlilik darajasi birinchi o'rinda qaralganda, daraxtzor qalinligi tushunchasi yanada murakkablashadi.

Eng maqbul qalinlikni aniqlash mumkinmi degan savol juda murakkab va kam o'rganilgan. chunki har qanday aniq bir sharoitda bir qancha omillarni aniqlash kerak: o'rmon maydoni kategoriyasi, turning biologik va qimmatlilik xususiyatlari: ahamiyati, ishlarni olib borishda mexanizmlarni ishlatish imkoniyati va boshqalar.

Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, siyrak va qalin daraxtzorlarning ijobiy va salbiy taraflari bor.

Bir xil tur har xil sharoitda turlicha o'sadi va ekishda bunga e'tibor berish kerak.

Hozirgi vaqtda erdan unumli foydalanib, daraxtzor o'sishi, rivojlanishini tezlashtirish madaniy o'rmon barpo etishning asosiy maqsadidir.

Keyingi paytlarda madaniy o'rmonlar samaradorligini oshirish maqsadida kompleks mexanizatsiyadan foydalanilmoqda. bu esa vaqtdan ham yutish imkonini beradi. qator oralig'i 2,5-3 m qilinganda 4-5 yil mexanizatsiyada ishlov berish imkonini beradi. bunda tuproq 18 sm gacha chuqurlikda yumshatiladi. keyinchalik yumshatishni davom ettirish ko'chat ildizlari zararlanishiga olib keladi. shuning uchun 4-5 yildan keyin qator oralari mexanizmda yumshatilmaydi. bu esa qator oralarida o't o'simliklarning rivojlanib ketishga olib kelib, ko'chat o'sishiga salbiy ta'sir etish mumkin.

Maqbul sharoit yaratish maqsadida, erdan unumli foydalanish kerak ya'ni 2,5-3 m li qator oralig'iga bir qator tez o'suvchi, xo'jalik maqsadida ishlatiladigan ko'chat o'tkaziladi. birinchi yillari ozuqa va quyosh nuri etarli bo'lganligi uchun yaxshi, tez o'sib rivojlanadi. 8-12 yildan so'ng asosiy ko'chat yaxshi rivojlanishi uchun yordamchi ko'chatlar kesib olinadi. ulardan turli xil maqsadlarda foydalanish mumkin.

Savollar:

1. Ko'chatlarni texnik qabul qilish nima va tartibining ayting?
2. Inventarizatsiya nima va uni o'tkazish vaqtini ayting?
3. Transportda ko'chatlarni tashishda nimalarga e'tibor beriladi?
4. Ko'chatlar qanday usulda o'rmonzorlarga ko'chirib o'tkaziladi?
5. Nina bargli daraxt ko'chatzorlariga ta'rif bering
6. Yaproq bargli o'rmon daraxtzori ko'chatzorlariga qanday talab qo'yiladi?
7. O'rmon butasimon o'simliklarining ko'chatlariga qo'yiladigan texnik talablar nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. Qalandarov M. “O‘rmonchilik”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2017 yil.
2. Xonazarov A. “O‘rmonshunoslik”. Darslik. Toshkent: 2014yil
3. Berdiyev E.T, Saloxiddinov G‘.M.,Hamroyev H.F. “O‘rmonchilik” O‘quv qo‘llanma Toshkent 2012yil.
- 4.Yuidashev Y.X. “O‘rmon melioratsiyasi” Toshkent. O‘quv qo‘llanma 2013yil.
5. Xonazarov A. “O‘zbekistonda ormon barpo etish” Darslik. Toshkent: 2014yil

Qo‘shimcha adabiyotlar:

6. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasi 75-sessiyasida so‘zlagan nutqini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish. O‘quv qullanma. Toshkent, “Ma’naviyat” NMIU, 2021 yil. – 280 bet.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
8. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.
12. O‘rmon to‘risida qonun 1999yil fevral

Axborot manbaalari

13. [www. Ziyo.net.uz](http://www.Ziyo.net.uz).
14. <http://www.TSAU.uz>
15. www.sea@mail.net21.ru
16. <http://agro.uz>
17. www.edu.uz.
18. www.lex.uz.

